



Theoretical foundations and methodological approaches to developing English language lexical skills in students of primary education

Jakhongir MADMUSAEV¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2025

Received in revised form

10 March 2025

Accepted 25 March 2025

Available online

25 April 2025

Keywords:

primary education,
English language,
lexical skills,
receptive competence,
reproductive competence,
vocabulary reserve,
methodological approaches.

ABSTRACT

This article presents a theoretical and practical analysis of developing English lexical skills among primary education students. The linguistic, didactic, psychological, and methodological principles of lexical skill development are explored in their interconnectedness. The author elucidates the essence of behaviorist, cognitive, humanistic, communicative, global, deductive, inductive, and learner-centered approaches to foreign language teaching, identifying the unique characteristics of each approach and its role in fostering lexical skills. Furthermore, the process of developing receptive and reproductive lexical abilities is described, and the importance of passive and active vocabulary in effective English language acquisition is examined. The study concludes by offering practical recommendations for successfully enhancing students' lexical skills.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss4/S-pp345-351>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ingliz tili leksik ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari va metodik yondashuvlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

boshlang'ich ta'lim,
ingliz tili,
leksik ko'nikmalar,
retseptiv malaka,
reproduktiv malaka,
lug'at zaxirasi,
metodik yondashuvlar.

Maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi leksik ko'nikmalarini shakllantirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Leksik malakalarni rivojlantirishning lingvistik, didaktik, psixologik va uslubiy tamoyillari o'zaro bog'liqlikda ochib berilgan. Muallif chet tilini o'qitishdagi bixevioristik, kognitiv, gumanistik, kommunikativ, global, deduktiv, induktiv va shaxsga yo'naltirilgan

¹ Doctoral student, Namangan State University. E-mail: madmusayevjahongir@gmail.com

yondashuvlarning mohiyatini tushuntirib, har bir yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari va leksik ko'nikmalarni shakllantirishdagi rolini aniqlagan. Shu bilan birga, retseptiv va reproduktiv leksik malakalarning rivojlanishi jarayoni tavsiflangan, passiv va faol lug'at zaxirasining ingliz tilini samarali o'zlashtirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot yakunida talabalarning leksik malakalarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar taqdim etilgan.

Теоретические основы и методические подходы к формированию лексических навыков английского языка у студентов направления начального образования

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

начальное образование,
английский язык,
лексические навыки,
рецептивные умения,
репродуктивные умения,
словарный запас,
методические подходы.

В статье с теоретической и практической точек зрения проанализированы вопросы формирования лексических навыков английского языка у студентов направления начального образования. Лингвистические, дидактические, психологические и методические принципы развития лексических навыков раскрыты во взаимосвязи. Автор разъясняет сущность бихевиористского, когнитивного, гуманистического, коммуникативного, глобального, дедуктивного, индуктивного и личностно-ориентированного подходов в обучении иностранному языку, определяет особенности каждого подхода и его роль в формировании лексических навыков. Также описан процесс развития рецептивных и репродуктивных лексических навыков, проанализировано значение пассивного и активного словарного запаса в эффективном усвоении английского языка. В заключение исследования представлены практические рекомендации по успешному развитию лексических навыков студентов.

KIRISH

Leksik malakalarni shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalardan biri va talabalarni kognitiv rivojlantirishning predmeti xiso blanib, ingliz tilini effektiv va produktiv o'qitishga yordam beradi.

Leksika so'zining ma'nosi – "tilning lug'at tarkibi, ya'ni predmet yoki hodisalar haqidagi bilimlarni ifodalovchi leksemalar yig'indisidan iborat tizim" [1]. Leksikaning vazifalari tilning lug'at boyligi va uning o'zgarishlarini, so'z yasash qonuniyatlarini va so'z semantikasini o'rganishdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

G.V. Rogovanning fikricha, leksikani o'rgatishda yuqori samaradorlikka bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ma'lum tamoyillarning kombinatsiyasi orqali erishiladi.

Bu tamoyillar orasida quyidagilar mavjud:

– "didaktik – vizual ko'rsatish, o'nglilik, amaliy qo'llash;

- lingvistik – leksikaning miqdori tanlash, o‘tilgan mavzularni takrorlash;
- psixologik – ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish;
- uslubiy – leksikani o‘rganish va nutq faoliyatining turli sohalarida qo‘llash” [2].

Leksik birliklar, idiomalar va eng keng tarqalgan iboralaridan foydalanish lingvistik tarkibiy qismlar xisoblanadi. Talabalarning ijtimoiy muhitda muloqot qilishiga yordam beruvchi va leksik qarashlarni minimallashtiruvchi psixologik tarkibiy qism xisoblanadi. Uslubiy tarkibiy qism talabalarning ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi hamda ularning kelajakdagi muammolarini hal qilishga yordam beradi.

E.G. Azimovning ta’kidlashicha, so‘z bo‘yligi hayotimizdagi eng muhim vosita bo‘lib, u o‘z fikrini ifodalash, shuningdek, predmet yoki hodisalarni tasvirlash imkoniyatini beradi [3]. Har qanday leksika bilim doirasini kengaytiradi va o‘quvchilarning keyingi muvaffaqiyatli rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

G.V. Rogova ta’riflaganidek, “leksik birlik – bu biron narsa, hodisa yoki xususiyatni belgilash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan so‘z, ibora yoki boshqa til birligidir. Xorijiy til leksikasini o‘rgatish nutq faoliyatining barcha turlarida foydalanish uchun leksik birliklarning zarur hajmini aniqlaydi” [2].

Ingliz tili leksikasini o‘rganmasdan oldin, til o‘rganishning navbatdagi bosqichiga o‘tib bo‘lmaydi, shu sababli ta’lim olish vaqtida leksik bilimlarni kengaytirish bosqichi katta ahamiyatga ega. Bu tarkibiy qismni samarali bajarish uchun ingliz tilini o‘rgatishga bo‘lgan yondashuvni aniq tanlash zarur. “Ta’lim yondashuvi – bu strategiya, chet tillarini o‘rgatishda aniq maqsad va vazifalarga erishish usuli sifatida belgilanadi” [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Chet tilini o‘qitishga yondashuvlarning eng ko‘p tavsiflangan tasniflaridan biri bu I.L. Kolesnikova va O.A. Dolginlar tomonidan taklif qilingan tasnifdir [5].

– Bixevioristik yondashuv – bu chet tilini ketma-ket va bosqichma-bosqich o‘rganish bilan tavsiflangan ta’limga yondashuv. Oldindan tayyorlangan material ortib borayotgan murakkablikka qarab taqsimlanadi va qismlarga bo‘linadi.

– Kognitiv yondashuv – talabalarning kognitiv rivojlantirish asosida amalga oshiriladi. Ta’lim ishtirokchilarining xususiyatlarini, til o‘rganish qobiliyatini, o‘zlashtirish tezligini va talabaning shaxsini hisobga oladi. J. Bruner va V. Riverslarga ko‘ra, “kognitiv yondashuvdan foydalangan holda o‘quv jarayoni o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun asos bo‘lgan aqliy jarayonlar va harakatlarga qaratilgan”.

– Gumanistik yondashuv – talabalarning sezgi va his-tuyg‘ulari hamda aqliy rivojlanishiga qaratilib, ta’limning samarali bo‘lishini ta’minlovchi mas’uliyatlilik, ijodkorlik, o‘z-o‘zini boshqarish va dunyoni idrok etishni tarbiyalashga qaratilgan.

– Kommunikativ yondashuv – chet tilini muloqot vositasi sifatida o‘rganishga asoslangan. Kommunikativ yondashuvni amalga oshirishda o‘quv jarayonini haqiqiy muloqotga yaqinlashtirish kerak, chunki grammatik qoidalarni bilish muloqot muvaffaqiyatini kafolatlamaydi. Kommunikativ yondashuv nutq faoliyatining barcha turlarini rivojlantirishga yordam beradi, nutqni til o‘rganishning asosiy jihat sifatida ta’kidlaydi.

– Global yondashuv – xar-hil vaziyatlarni qismlarga ajratmay, butunligicha o‘rganishni qamrab oladi. Ta’lim ushbu tamoyil asosida tashkil etilib, ingliz tili yaxlit sifatida qabul qilinadi hamda bir tizim sifatida o‘rganiladi.

– Shaxsga yo‘naltirilgan yo‘ndashuv – (learner-centered approach) “o‘quvchilarning o‘ziga xos odatlari, xarakteri, qobiliyatlari, tajribalari va qiziqishlariga ega bo‘lgan individual xususiyatlariga e‘tibor qaratadi”. Ushbu yo‘ndashuv asosida talabalarni ta‘lim jarayonida shaxs sifatida ko‘rib chiqadigan turli xil o‘qitish strategiyalari ishlab chiqilgan. Xorijiy metodikada shaxsga yo‘naltirilgan yo‘ndashuv o‘qituvchiga qarama-qarshi bo‘lib (teacher-centered approach), bunda o‘qituvchi o‘quv jarayonining rahbari hisoblanadi. Bunday mashg‘ulotlar bilan o‘quvchilarning ijdokrligi, ijodiy qobiliyatlari va mustaqilligini rivojlantirish qiyin.

– Deduktiv yo‘ndashuv – ingliz tili nazariyasini o‘rganib, keyin amaliyotda o‘rganilgan material bilan ishlashni ilgari suradi. Ta‘lim umumiydan xususiyga, nazariyadan amaliyotga tamoyili bo‘yicha olib boriladi.

– Ta‘lim natijasiga yo‘naltirilgan yo‘ndashuv. Ushbu yo‘ndashuv butun ta‘lim jarayoni davomida talabalar oldiga qo‘yilgan maqsadga erishishni o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, natijada nutq faoliyatining qandaydir turlari: yozish, dialog, kompozitsiya va boshqalar paydo bo‘ladi. Ta‘lim natijasiga yo‘naltirilgan yo‘ndashuv (product – oriented approach) bilan o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan vazifalar aniq maqsadga erishish uchun bajariladi.

– Induktiv yo‘ndashuv – ingliz tili nazariyasi va qoidalarini amaliyotda o‘zlashtirilganlar bo‘yicha o‘rganish bilan amalga oshiriluvchi usulidir. Ma‘lum bir mashqlarni bajarish jarayonida til shakllarini chuqurroq o‘rganish bilan grammatik yoki leksik qonun-qoidalar baholalanib, tahlil qilinadi.

– Ta‘limga yo‘naltirilgan yo‘ndashuv. Ushbu yo‘ndashuv yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida foydalaniladi. Buni amalga oshirishda o‘qituvchi ta‘lim oluvchilarga yozish, kompozitsiya yoki insho rejalashtirish, tezis yozish, matn qismlarini o‘zgartirish va alohida iboralarni qayta shakllantirishni o‘rgatishi kerak.

– Auditiv yo‘ndashuv – talabalarning ona tilini o‘rganish jarayoni tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Bu yo‘ndashuv ingliz tili muhitiga kirish va uni mukammal o‘rganishni qamrab oladi.

– “Leksik yo‘ndashuv – o‘zlashtirish jarayonini o‘z ichiga olib, asosiy e‘tibor leksikani o‘rganishga qaratiladi”. Bu yo‘ndashuv “so‘zlarning keng ma‘nosini o‘zlashtirishga, so‘z yasashga, leksikaning nutqning boshqa qismlari bilan uyg‘unligi va mosligiga asoslanadi va leksik ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi”.

Chet tilini o‘rganish uzoq va juda qiyin jarayon bo‘lib, u juda ko‘p sonli turli jihatlarni o‘z ichiga oladi. Taniqli uslubchilar til o‘rganishning turli jihatlari ahamiyati haqida gap ketganda bir xil fikrda emas. Masalan, L.V. Shcherba “chet tilini o‘rganishning eng muhim jihati grammatik jihat deb hisoblaydi, chunki u grammatikani leksikani yagona semantik ifodaga birlashtirishga va muloqot orqali ma‘lumot uzatishga yordam beradi”. Grammatika leksika kabi muhim emas deb hisoblardi, chunki agar siz 100 ta so‘z va 10 ta qoidani bilsangiz, qarama-qarshi hodisaga qaraganda ancha ko‘p jumlar va bayonlar tuzishingiz mumkin. Ingliz tilida muloqotni samarali olib borish uchun leksika, grammatika va nutq faoliyatining barcha turlarini tizimli hamda ketma-ket o‘rganib borish kerak.

E.G. Azimovning metodik atamalar lug‘atida “leksik malaka – grammatik nuqtai nazardan ko‘ntekstga mos keladigan leksik birlikni tanlash, shuningdek, boshqa birliklar bilan qo‘llash qobiliyatidir” [3].

Leksik birlik deb – “o‘g‘zaki yoki yozma shaklga ega bo‘lgan, ma‘no si va bo shqa leksik birliklar bilan bog‘lanish uchun mo s keladigan so‘z yoki ibo raga aytiladi”. Leksik malaka tarkibiga quyidagilar kiradi:

- “leksik birlikning to vush shakli;
- leksik birlikni tanlash;
- leksik birlikning bo shqa so‘zlar bilan birikmasi;
- nutq vazifasi”.

Inson xotirasidagi leksikaning sintagmatik va paradigmatic bog‘liqligi ajralib turadi. Sintagmatik bog‘lanish ma‘lum lug‘atning bo shqa so‘zlar bilan qo‘shilib ketishi, ya‘ni leksik birliklar o‘rtasida qayta-qayta yangi birikmalar hosil qilish imkoniyati bilan tavsiflanadi. So‘zning vizual va fonetik shaklini paradigmatic bog‘lanish deb aytish mumkin. U umumiy semantik xususiyatga ega bo‘lgan so‘zlarning ma‘nolarini o‘zida jamlaydi. So‘z mashqlarini bajarish bog‘lanishni mustahkamlaydi, leksik ko‘nikmalarni hosil bo‘lishini, shaxs xotirasida saqlanib qolishini ta‘minlab beradi.

Leksik malakalarning retseptiv va produktiv turlari mavjud bo‘lib, nutq faoliyatining bazi turlarida produktiv ko‘nikmalar namoyon bo‘ladi. Lug‘atlardan intuitiv foydalanish, so‘z yasash va ularni to‘g‘ri qo‘llash shular jumlasidandir. So‘zlardan foydalanishda grammatik va stilistik ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni qamrab oladi. Retseptiv ko‘nikmalar mazmunni vizual yoki fonetik idrok etishda namoyon bo‘lib, leksikani aniq tushunish bilan tavsiflanadi. Ushbu tur o‘qish va tinglash bilan shug‘ullanadi va nutq faoliyatining bunday turlarini amalga oshirishda so‘zlarni tushunishning qiyinligi yoki noto‘g‘riligi ushbu malakaning yetukligining ko‘rsatkichidir.

Leksik ko‘nikma talabalar leksik birliklarni mazmunda grammatik, so‘z yasash me‘yorlari va nutq faoliyatining turlarida leksikaga mosligi qoidalariga amal qilib qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lganda, sinonim va antonimlarni qo‘llagan holda so‘zlarning ma‘nolarini tushunganda shakllanib boradi.

Leksik ko‘nikma quyidagi xususiyatlarga ega:

- avtomatlashganlik;
- egiluvchanlik;
- nisbiy murakkablik;
- o‘nglilik.

Avtomatlashtirish muayyan leksik birlikni tanlash tezligini, shuningdek, nutq mazmuniga diqqatni jamlashni o‘z ichiga oladi. Egiluvchanlik leksik birliklarni bo shqa birliklar bilan birgalikda ishlatishni o‘z ichiga oladi. Nutqda turli xil murakkablikdagi leksik birliklardan foydalanish progressiv leksik malakani, shuningdek, o‘ngsiz darajada nutq faoliyatini nazorat qilish qobiliyatini ko‘rsatadi.

O‘quv jarayonida talabalar yangi so‘z boyligi bilan leksik zahirani oshirishlari, nutq faoliyatida leksik birliklardan foydalanishni o‘rganishlari kerak.

E.I. Passovga ko‘ra leksik malaka 6 ta bosqichga bo‘linadi:

- so‘zning vizual va fonetik tasvirini, til tizimidagi vazifalarini idrok etish;
- so‘zlarning ma‘nolarini bilish;
- so‘zlarni mazmuni asosida qayta ko‘rib chiqish;
- narsa va hodisalarni ma‘lum bir leksik birliklarga muvofiq idrok etish;
- jumalarni yasashda nutqning bo shqa qismlari bilan leksikaning o‘rin almashishini ta‘minlash;
- leksik birliklardan mustaqil foydalanish.

Nutq faoliyatining turiga qarab, leksik malakani retseptiv va reproduktivga bo'lish mumkin. Retseptiv leksik ko'nikma tinglash va o'qishda, talaba nutq so'zlari yoki matnni idrok etganda va qayta ishlaganda qo'llaniladi. Bu yerda muhim element – berilgan so'zni uning tanish tasviri va shakli bilan identifikatsiya qilish tezligi. Keyinchalik, uning ma'nosini (ma'nolarini) aniqlash va kontekstga muvofiq eng mosini tanlash kerak. Bundan kelib chiqadiki, "retseptiv leksik malaka – bu leksik birlikni vizual va fonetik jihatdan tanib olish va so'z shaklini uning ma'nosi bilan bog'lash qobiliyatidir".

Reproduktiv leksik malaka nutqiy so'zlashuvni yaratish (gapirish, yozish) uchun leksik birliklarni ko'paytirishni o'z ichiga oladi. Buni amalga oshirish uchun so'zni eslab qolish, keyin uni oldingi va keyingi so'zlar bilan solishtirish, ularni til me'yorlariga moslashtirish va kommunikativ vazifaga muvofiq ushbu operatsiyani amalga oshirishning muvaffaqiyatini aniqlash kerak. Shuning uchun muloqotda leksik birliklardan muvaffaqiyatli foydalanish uchun ushbu jarayonni egiluvchanlik va avtomatlashganlik ko'nikmalarini shakllantirish kerak.

Leksik ko'nikmalarining ushbu turlarini o'z ichiga olgan jarayonlarni tahlil qilamiz.

Retseptiv operatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- leksik birliklarni idrok etish va aniqlashtirish;
- leksik birlik ahamiyatini bilish va ma'no berish;
- matn yoki eshitilgan nutqning ma'nosini tushunish uchun leksikaning ma'nosini jamlash.

Reproduktiv operatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- doimiy xotirada birov narsa va hodisani ifodalash uchun kerakli leksik birlikni takrorlash;
- leksik va grammatik qoidalarga amal qilib, doimiy xotirada leksik birliklarning o'rin almashishi;
- nutqda leksik birliklarni qo'llash.

Reproduktiv va retseptiv operatsiyalar asosida, leksik malaka so'zning xususiyatlarini, ma'nosini va maqsadini o'z ichiga oladi deb xulos qilishimiz mumkin. Leksik malakaning mohiyati ma'lum bir nutq vazifasiga qarab leksik birlikni uzoq muddatli xotiradan takrorlash va uni nutq zanjiriga kiritish operatsiyasini bajarish qobiliyatidir, shuning uchun nutq faoliyatining barcha turlarida tilni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun talabalarda leksik malakani maqsadli ravishda rivojlantirish kerak.

Passiv va faol leksik zahiralari ingliz tili leksikasini o'rganishdagi eng muhim tushunchalardir. Inson biluvchi barcha so'zlar, boshqa birovning nutqida, internet tarmog'ida yoki yozma manbalarda o'qilganda ma'nosini oson tushunish mumkin bo'lgan so'zlarga passiv leksik zahira deb atash qabul qilingan. Nutqimizda bu kabi so'zlar juda kam ishlatiladi yoki umuman ishlatilmaydi. Passiv leksik zahiraning hajmi faol leksik zahiradan katta bo'lishi mumkinligini aytishimiz mumkin.

Nutqimizda har kuni, muntazam ishlatadigan so'zlarimiz to'plami faol leksik zahira deb yuritiladi. Faol leksik zahira nafaqat og'zaki nutqda, balki yozma nutqda ham namoyon bo'ladi. Faol leksikaning asosiy xususiyatlari – foydalanish erkinligi va ma'lum so'zlarni tanlash yoki ularning ma'nolarini xotirada izlash uchun hech qanday harakat qilish zarurati yo'qligi hisoblanadi.

Faol leksikani ikkita mezon orqali tanlanadi:

1. Ona tili va ingliz tilidagi so'zning ma'nosi va shakli o'rtasidagi munosabat;
2. Organilayotgan tildagi so'zning o'ziga xos xususiyati.

Ushbu mezo nlarga ko'ra quyidagi so'z turlarini ajratish mumkin:

1. Ikki tilda ham o'xshash ma'no ga beradigan o'zlashtirilgan va xalqaro so'zlar;
2. So'z birikmalari, ho silalar va qo'shma so'zlar;
3. Hajmi nuqtayi nazaridan o'na tilidagi so'zlarning semantik hajmiga teskari bo'lmagan so'zlar;
4. Ma'no va mazmuniga ko'ra o'ziga xos bo'lgan so'zlar;
5. O'na tilidagi kabi ildizli so'zlar;
6. Ma'no sining hajmi o'na tilidagi ma'no sining hajmidan katta va kichik bo'lgan leksik birliklar.

XULOSA

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishida talabalarning leksik ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilindi. Ingliz tilini samarali o'qitish va kognitiv rivojlanishni ta'minlash uchun leksik malakalarni shakllantirishning nazariy asoslari, amaliy yondashuvlar va metodik jihatlari yoritildi. Maqolada leksikani o'rgatishdagi asosiy tamoyillar – didaktik, lingvistik, psixologik va uslubiy jihatlari o'zaro bog'liqlikda tahlil etildi. Ingliz tili leksikasini samarali o'rganishda mavjud bo'lgan yondashuvlar, xususan, bixevioristik, kognitiv, gumanistik, kommunikativ, global, shaxsga yo'naltirilgan, deduktiv, induktiv va audativ yondashuvlar tavsiflandi. Har bir yondashuvning xususiyatlari va talabalarning leksik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni ko'rsatib berildi.

Shuningdek, leksik malakalarning retseptiv va reproduktiv turlari, passiv va faol leksik zahiralar tahlil qilinib, ularning til o'zlashtirishdagi ahamiyati asoslab berildi. Talabalarning lug'at boyligini kengaytirish va so'zlarni samarali ishlatishni o'rganishi uchun zarur bo'lgan metodik tavsiyalar ilgari surildi. Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi talabalarda ingliz tili leksik malakalarini rivojlantirish uchun yuqorida bayon etilgan yondashuvlarni kompleks qo'llash, shuningdek, lug'atni o'qitishda yangi texnologiyalar va samarali usullarni qo'llash zarurati mavjud. Bu esa ingliz tilini muvaffaqiyatli egallash hamda talabalarning kelajakdagi kommunikativ va kognitiv rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бондарев, М.Г. Обучение профессионально ориентированному чтению студентов технического вуза с использованием компьютерной программы [Текст]: дис. ... канд. пед. наук / М.Г. Бондарев. – Таганрог, 2009. – 273 с.
2. Рогова Г. В. Методика обучения иностранным языкам в средней школе: учебное пособие / Г. В. Рогова. – М.: Просвещение, 1991. – 287 с.
3. Азимов Э. Г. Новый словарь методических терминов и понятий: теория и практика обучения языкам – М.: ИКАР, 2010. – 446 с.
4. Болотов, В.А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе [Текст] / В.А. Болотов, В.В. Сериков // Педагогика. – 2003. – №10. – С. 8-14.
5. Колесникова И. Л., Долгина О. А. Англо-русский терминологический справочник по методике преподавания иностранных языков / И. Л. Колесникова, О. А. Долгина. – СПб.: Из-во БЛИЦ, Cambridge University Press, 2001. – 224 с.